



TARAQQIYOT DAVOMIDAGI O‘SISHLAR VA O‘ZGARISHLAR. O‘ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Nizomova Malohat Ilhom qizi

*Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Taraqqiyot so‘zining tub mohiyatini anglagan holda, uni o‘tmishimizdagi jarayonlari bilan tanishish. Bugungi kunda taraqqiyot uchun amalga oshiriladigan siyosiy qarorlar va ustuvor yo‘nalishlar haqida fikrlar.*

Kalit so‘zlar: *taraqqiyot, strategiya, renesans, liberal-demokratik partiya, ustuvor yo‘nalishlar, ma‘naviy taraqqiyot.*

KIRISH: Taraqqiyot— jonsiz, anorganik tabiatga ham, jonli, organik tabiatga ham, jamiyatga, inson tafakkuriga, ruhiyatiga ham xos bo‘lgan tabiiy va zaruriy jarayondir. Taraqqiyot mikro, makro, megadunyoda ham sodir bo‘ladi. Taraqqiyot tufayli olamda mukammallashish, yuksalish ro‘y beradi, u vujudga kelish, murakkablashish, ulg‘ayish, yangilanish, tiklanish, sistema yasalish jarayonlari tarzida amalga oshadi. Taraqqiyot yaxlit jarayondir.

Tarixdan yaxshi ma‘lumki, diyorimizdagi birinchi Renessans davri - Somoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Renessansning ikkinchi davri esa – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tariladi.

O‘zbekistonda yangi uyg‘onish - Uchinchi Renessans davri boshlandi. Mazkur holatni bugungi kunda mamlakatimizda, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev taqdim etgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

Avvalambor, loyihasi muhokama qilinayotgan asosiy tarixiy hujjatning nomi – “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” deyiladi. Prezidentimiz o‘z nutqida qayd etganidek, o‘tgan saylov davomida davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli yangi kitobi birinchi navbatda Tadbirkorlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi elektorati o‘rtasida o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazildi.



Yangi O'zbekiston strategiyasida 2017-yil fevralida Prezidentimizning Farmoni bilan tasdiqlanib, 5 yil davomida hayotga izchil tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan yutuqlar, xususan, asosiy natijalarga oid dalil va raqamlar ham keltirilgan.

Shunday qilib, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo'nalish nazarda tutilgan:

- birinchi ustuvor yo'nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- ikkinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- uchinchi ustuvor yo'nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
- to'rtinchi ustuvor yo'nalish – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- beshinchi ustuvor yo'nalish – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- oltinchi ustuvor yo'nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- yettinchi ustuvor yo'nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezunga aylanishiga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 22-dekabdagi Oliy Majlisga murojaatnomasidagi nutqi.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.

3.Sh.Fayzullaev. Islohotlar samarasi: tajriba, malaka, texnologiya Maktabgacha ta'lim jurnal. –T., 2018- yil, 12-son